

ANSAMBL IJROCHILIGI FAOLIYATINING TARIXI VA TARAQQIYOT  
BOSQICHLARI

Alimova Diyora Alimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

musiqiy ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

[dalimova708@gmail.com](mailto:dalimova708@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek milliy musiqa san'atiga ansambl tushunchasining kirib kelish tarixi hamda turli davrlardagi faoliyati haqida fikr yuritilgan. Bu jarayonda bevosita cholg'u jamoalarining ahamiyati o'zgacha. Sozandalar ansambillari sular jumlasidandir.

**Kalit so'zlar:**Cholg'u jamoalari, sozandalar ansambli, cholg'u guruhlari, ijro mahorati.

**Abstract:**Uzbek national musical instruments have great technical and artistic capabilities. They have the ability to play different genres of music. In this process, musical ensemble are very important. Ensembles of musicians are among them.

**Keywords:** Musical ensembles, ensemble of musicians, instrumental skills, performance skills.

Har bir xalqning buyuk o'tmishidan darak beruvchi boy madaniyati uning aslini belgilaydi. Bu madaniyat, qadimdan ushbu elatlar va millatning moddiy va ma'naviy ravnaqi yo'lida xizmat qildi va xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek, uni boshqa xalqlar odatlari, an'ana va qadriyatlardan keskin farqlanishini belgilab berdi. O'zbek xalqi ham huddi ana shunday o'zining boy tarixi, qadimgi madaniyati va o'zchmas musiqa san'ati bilan dunyo musiqa madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan tarixiy xalqlar sirasiga kiradi. Ushbu san'at otadan o'gilga, onadan qizga, ajdodlardan avlodlarga, ustoz shogirdga an'ana bo'lib, yashab kelmoqda. Buni isboti sifatida bugungi kunda mamlakatimizda qad ko'tarib turgan tarixiy obidalar, orxeologik topilmalar, miniatyura san'atida aks etgan rasmlar, me'morchilik, xalq og'zaki va yozma ijodida tasvirlangan san'at asarlari orqali ko'rishimiz mumkun.<sup>1</sup>

O'zbekiston hududida azal-azaldan madaniyat, musiqa va san'at yuksak darajadarivojlangan. Mamlakatimizning turli hududlari, vodi-yu, vohalarida olib borilgan arxeologik qazilmalari natijasida topilgan tasviriy san'at yodgorliklarida buni yaqqol ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkun. Musiqa ansambl masalasiga oid ma'lumotlarni Farobiy, Marg'iloniy, Kavkaviy, Darvesh Ali Changchi, so'ngi yillarda Fitrat kabi o'zbek musiqa san'ati nazariyasi, tarixi va amaliyotida munosib xizmat ko'rsatgan buyuk allomalar, musiqashunos olimlar risolalarida tasdiq topgan.

Ansambl ( fransuzcha ensemble-birlik, uyg'unlik, ohangdoshlik )<sup>2</sup> ma'lum musiqa asarinining bir necha ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etilishi. Ansambl atamasi yuksak ijro bilan ajralib turadigan badiiy jamoalarga nisbatan ham qo'llaniladi. Ijrochilar soniga qarab ansambillar duet(2kishi), trio (3 kishi), kvartet (4 kishi), kvintet( 5 kishi), sektet(6 kishi), septet(7 kishi), oktet(8 kishi), nonet(9kishi) va boshqalar.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va oily janob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017 yil

<sup>2</sup> I.Akbarov. Musiqa lug'ati. Toshkent 1986 yil 7-bet

<sup>3</sup> O.E.Xolmirzayev "Ansambl ijrochiligi" Jizzax 2018 yil 5-bet

Ilk ansambl 1923-yil To‘xtasin Jalilov rahbarligida, 1927-yil radio qoshida, Yunus Rajabiy rahbarligida tashkil etilib, faoliyat yuritib kelgan. Turki tarkiblarda tuzilgan ansambillar XX asirning birinchi yarmidayoq keng ommalashgan va amaliyotga keng joriy etilgan. 1957-yili Yunus Rajabiy rahbarligida va O‘zbekiston teleradiosi qoshida maqomchilar ansambli tashkil etilishi ulkan voqeaga aylandi. Ushbu ansambldan keyin avlod uchun ustoz Yunus Rajabiyning ijro uslubi, qoldirgan ulkan merosi namunadir.

### **Katta ansambl**

Ushbu ansamblning birinchi rahbari Nikolay Nazarovich Mironov bo‘lib, u ansambl asosida nota bilan ijro etiladigan jamoa hisoblanar edi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, davr talabi bilan ushbu ansamblga taniqli san‘atkor, mohir sozanda va bastakor To‘xtasin Jalilov rahbar etib tayinlandi. Bu ansamblda o‘sha davrning taniqli hofizlaridan: Mulla To‘ychi Toshmammedov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Halima Nosirova, Nabijon Hasanov, Rizqi Rajabiy kabi bir qator mashhur san‘atkorlar ijodiy faoliyatini ko‘rsatishdi. 1937-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan birinchi o‘zbek adabiyoti va san‘ati kunlarida “Katta ansambl” jamoasi ham qatnashib ulkan muvaffaqiyatga erishdilar.

### **Bir xil cholg‘ulardan tashkil topgan ansambl**

Bu turdagi ansambillarga doirachilar, rubobchilar, changchilar, dutorchilar, g‘ijjakchilar va shunga o‘xshash bir xil cholg‘ulardan tashkil topgan ansambillarni kiritish mumkun. Bu ansambillarda ham unison, ham ko‘p ovozli asarlarni ijro etish imkoniyati mavjud. O‘tkan asrning 70-80 yillarda qashqar rubobchilar hamda dutorchilar ansambili keng tarqalib ommalashgan bo‘lsa, 80-yollar oxiriga kelib doirachilar, changchilar ansambllari ommalashdi va shu ansambllar uchun maxsus musiqa asarlari ham yaratildi.

### **Turdosh cholg‘ular ansambli.**

Kamer ansambl nomi bilan Yevropa musiqa madaniyatida keng qo‘llaniladigan turli cholg‘ular ansambllari nisbatan katta tarixga ega bo‘lsa-da, bu turdagi ansambllar o‘zbek xalq cholg‘ularining qayta ishlanishi va takomillashishi natijasida cholg‘u oilalari paydo bo‘lgandan keyin dunyoga keldi. Turdosh cholg‘ulardan tashkil topgan ansambllar qatoriga nay va kichik naydan tashkil topgan nay oila ansambli, rubob prima, qashqar rubobi hamda afg‘on rubobidan tashkil topgan rubobchilar oila ansambli va boshqalarni kiritish mumkun. Bunday ansambllarda qaysi cholg‘udan nechtasi ishtirok etishi cholg‘ularning sadolanishiga qarab belgilanadi. Ansamblda cholg‘ular sonini belgilashda kuchli tembrdagi cholg‘ulardan kamroq, kuchsiz tembrga ega cholg‘ulardan esa ko‘proq ishtirok etishini nazarda tutish maqsadga muvofiq.

### **Turli cholg‘ular ishtirokidagi aralash ansambl**

Aralash ansambllar boshqa turdagi ansambllarga nisbatan keng tarqalgan bo‘lib, turli cholg‘ulardan tashkil topgan, ikki va undan ortiq cholg‘uchilar ishtirokidagi jamoaga nisbatan aytiladi. Har tomonlama mukammal aralash ansambl tashkil etish uchun ansambl tarkibiga tembri va turi har xil bo‘lgan cholg‘ularni kiritish lozim bo‘ladi. Bunga puflab chalinadigan nay, qo‘shnay, sunray: mizrobli cholg‘ulardan afg‘on rubob, tanbur kabi cholg‘ularni kiritishimiz mumkin.<sup>4</sup>

### **Cholgularni sozlash**

<sup>4</sup> E.Toshmatov, O‘.Toshmatov “Ansambl sinfi” Toshkent 2006

Cholg'ularni aniq tovush manbaiga, ya'ni kamerton, nay yoki chang cholg'usiga sozlash tafsiya etiladi. Mashxulot boshlanishidan oldin har bir cholg'uning aniq sozlanishi orqali ansambl so'zining unison sadolanishiga erishiladi. Dastlabki mashxulotdan boshlab rahbar cholg'u so'zlarining aniq sozlanishiga e'tibor qaratishi va har bir ijrochidan ham shuni talab qilishi lozim. Musiqiy ma'lumoti bo'lmagan sozandalarning cholg'ularini dastlabki mashxulotlarda rahbarning o'zi sozlab berishi va sekin asta sozandani cholg'usini o'zi sozlashga o'rgatishi kerak. Ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ularining deyarli barchasi (puflab chalinadigan cholg'ular hamda tanbur, dutor, qonun, changdan tashqari) teri parda bilan qoplanadi. Bundan cholg'ularni sozlashda honaning iqlimi ham ro'l o'ynaydi. Xalq cholg'ularidan ko'pchiligining sozlanishi xarrakning to'g'ri joylashishiga ham bog'liq bo'ladi. Ochiq similar sozlanib, oktava tovushi tekshirilganda sof oktava tovushini bermasa, xarrak oldinga yoki orqaga surilib kerakli tovushning hosil qilinishiga erishiladi. Oktava tovushi, ochiq sim tovushidan balandroq eshitilsa xarrak dastaga nisbatan oldinga, pastroq eshitilsa shuning teskari holati qo'llaniladi. Barcha cholg'ular yuqorida ko'rsatilgan talablar asosida sozlaishi ansamblning unison, sof eshitilishiga xizmat qiladi.

### **Ansambl ijrochiligining umumiy qoidalari**

Ansamblda ijro mahoratini egallash, avvalo sozandalarning to'g'ri o'tirishi, cholg'u sozini to'g'ri ushlashi cholg'udan tovush chiqarish mahoratini egallab borishi, ijro harakatlarini to'g'ri shakillantirish hamda jamoaviy ijro qoidalariga to'liq rioya etishlikni talab qiladi. Ijro paytida gavdani shunday tutish lozimki, toki ijrochining cholg'u asbobini chalishdagi barcha harakatlari uchun qulay va tashqi ko'rinish chiroyli bo'lishi : suyanchiqqa suyanmasdan, o'rindiqning yarmiga o'tirish, sozandaning chap oyoqlari o'ng oyoqqa nisbatan bir oz oldinroqda bo'lishi: qo'lning cholg'u dastasiga to'g'ri joylashishi oqibatida ijro erkinligiga erishish:

Sozandalar asar ijrosini boshlashda yetakchi sozanda yoki doirachiga e'tibor qaratishlari:

Asarni chalib tugatishda ham ansambl azolarining bir vaqtda tugatishlari:

Ansambl ijrochiligida jamoaviy ijro madaniyatiga rioya qilishlari:

Ijro vaqtida sozanda nafaqat o'zining sozi, balki butun ansambldagi cholg'ular tovushini eshitish:

Ijro uchun qulay va o'tirish holatining tanlanishi ansamblning yaxshi sadolanishi, ijroning sifati va jozibadorligiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish joizki, ansambldagi ijodiyot serqirra va mashaqqatlidir. Hozirda ansambl tushunchasini yoshlar ongiga singdirish sharaflilardan biri hisoblanadi. Kelajagi buyuk davlatlarning kelgusida hozirgi yosh avlodni benazir ustozlar sifatida shakillana borishida ushbu tarbiya ham asos bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va oily janob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017 yil
2. I.Akbarov. Musiqa lug'ati. Toshkent 1986 yil 7-bet
3. O.E.Xolmirzayev "Ansambl ijrochiligi" Jizzax 2018 yil 5-bet
4. E.Toshmatov, O'.Toshmatov "Ansambl sinfi" Toshkent 2006
5. F.M.Karamatov " o'zbek xalq musiqa merosi" Toshkent 1978 yil